

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi  
DEVONXONA  
KIRIM № 24  
2024 yil "15" "01



“TASDIQLAYMAN”  
O‘zbekiston Respublikasi  
Qishloq xo‘jaligi vaziri

I. Abduraxmonov

2024-yil “ 13 ” “ 01 ”

**Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limining 2024-yil uchun  
ISH REJASI**

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
1.	Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi Nizomi va xodimlarining funksional vazifalarini ishlab chiqish	O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa me‘yoriy talablarni inobatga olgan holda bo‘lim Nizomi va xodimlarining funksional majburiyatlari ishlab chiqish	2024-yil fevral	Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi
2.	Vazirlik tizim tashkilotlari va hududiy bo‘linmalarida Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish, oldini olish bo‘yicha ishlarni takomillashtirish	Vazirlikning tizim tashkilotlari va hududiy bo‘linmalarida Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish, oldini olish bo‘yicha ishlarni samarali tashkil etish, korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan topshiriqlar ijrosini o‘z vaqtida ta‘minlash, ma‘lumotlarni umumlashtirish maqsadida tizimdagi mas’ul xodimlar bilan doimiy aloqani yo‘lga qo‘yish	Doimiy	Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi, tizim tashkilotlari va hududiy bo‘linmalar rahbarlari
3.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son qarori ijrosini ta‘minlash	1.Markaziy apparat, hududiy bo‘linmalar va tizim tashkilotlari mas’ul xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha ma‘lumotlarni vazirlikka taqdim etib borish	Har chorak yakuniga ko‘ra	Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi, tizim tashkilotlari va

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
4.	Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid ichki me'yoriy xujjatlarni qayta ishlab chiqish hamda tizimga joriy qilish	<p>1.Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki idoraviy hujjatlarni qayta ishlab chiqish va tasdiqlash;</p> <p>2.Tasdiqlangan xujjatlar asosida vazirlik tizim tashkilotlari va hududiy bo'linmalarida ichki idoraviy xujjatlar ishlab chiqilishini va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan vazirlikga ma'lumot taqdim qilinishini nazoratga olish;</p> <p>3.Vazirlik tizimi xodimlarini ichki idoraviy xujjatlar bilan imzo qo'ydirgan xolda tanishtirish hamda ichki idoraviy hujjatlar bilan tanishib chiqqanligi darajasini aniqlash yuzasidan monitoring hamda tahlil ishlarini olib borish.</p>	<p>2024-yil iyun</p> <p>2024-yil iyul</p> <p>Doimiy</p>	<p>hududiy bo'linmalar rahbarlari</p> <p>Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi; Yuridik ta'minlash boshqarmasi; Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi</p>
5.	Vazirlik markaziy apparati, tizim tashkilotlari va hududiy bo'linmalarida manfaatlar to'qnashuvi holatlarini oldini olish va bartaraf etish bo'yicha amaliy choralarni ko'rish	<p>1.Rahbar va ishchi xodimlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvi haqida yillik deklaratsiyani to'ldirish va ularni tahlilini amalga oshirish, aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi holatlarini tartibga solish bo'yicha takliflar kiritish;</p> <p>2.Ishga qabul qilishda, lavozim o'zgarayotganda va rotatsiya qilinayotganda real manfaatlar to'qnashuvi fakti bo'yicha deklaratsiyani to'ldirish hamda aniqlangan manfaatlar to'qnashuvini hal etish choralarni ko'rib borish;</p> <p>3.Manfaatlar to'qnashuvi holatlarining hisobga olish reestrini yuritish</p> <p>4.Tizim tashkilotlari va hududiy bo'linmalari xodimlari tomonidan (ishga yangi qabul qilingan,</p>	<p>2024-yil fevral</p> <p>Doimiy</p> <p>Doimiy</p>	<p>Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi, Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi, tizim tashkilotlari va hududiy bo'linmalar rahbarlari</p>



T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		lavozimi o'zgargan xodimlarni inobatga olgan holda) to'ldirilgan manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyalarini vazirlikga taqdim qilish.	Har chorak yakuni bilan	
6.	Vazirlik tizimini kompleks tahlil qilish orqali Korrupsiya xavf-xatariga eng ko'p moyil bo'lgan funktsiya va lavozimlarni aniqlash hamda ularni minimallashtirish choralari ko'rish	<p>1.Vazirlik faoliyatidagi (<i>vazifa va funktsiyalaridagi</i>) Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash;</p> <p>2.Korrupsiya xavf-xatarlariga eng ko'p moyil bo'lgan funktsiya va lavozimlar ro'yxatini shakllantirish;</p> <p>3.Aniqlangan va yo'l qo'yilgan Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan dastur ishlab chiqish.</p>	<p>2024-yil sentyabr</p> <p>2024-yil sentyabr</p> <p>2024-yil oktyabr</p>	Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi, Vazirlik barcha departament, boshqarma va bo'lim boshliqlari,
7.	Korrupsiya holatiga oid huquqbuzarliklar haqidagi kelib tushgan murojaatlarni o'z vaqtida ko'rib chiqish va ko'rilgan choralar bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni shakllantirib borish	<p>1.Vazirlikga kelib tushgan korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni o'rganish (masofaviy va joyga chiqqan holda) va murojaatchilarga asosli javoblar yo'llash.</p> <p>2.Korrupsiya faktlariga doir murojaatlar reestrini yuritish</p> <p>3.Korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari haqidagi hisobotni rasmiy veb-saytda joylashtirish</p> <p>4. Tizim tashkilotlari va hududiy bo'linmalari tomonidan korrupsiya faktlariga doir murojaatlar bo'yicha hisobotlarni vazirlikga taqdim qilib borish.</p>	<p>Doimiy</p> <p>Doimiy</p> <p>Har chorakda</p> <p>Har chorak yakuni bilan</p>	Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi, tizim tashkilotlari va hududiy bo'linmalar rahbarlari

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
8.	Xarid jarayonlarini amalga oshirishda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldini olish	<p>1.Kontragentlarni tekshiruv natijalari bo'yicha xulosalar rasmiylashtirish hamda kontragentlarni tekshirish reestrda uning natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd etib borish;</p> <p>2.Kontragentlar tekshiruvi natijalari reestrini yuritish;</p> <p>3.Tizim tashkilotlari va hududiy bo'linmalari tomonidan kontragentlar tekshiruvi bo'yicha hisobotlarni vazirlikga taqdim qilib borish.</p>	<p>Doimiy</p> <p>Doimiy</p> <p>Har chorak yakuni bilan</p>	Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi, Moliya-iqtisod, buhgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi
9.	Korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida davra suhbatlari, uchrashuvlar va seminarlar tashkil etish hamda ekspert va mutaxassislarni jalb qilgan holda o'quv treninglarni o'tkazish	Vazirlik markaziy apparati, hududiy bo'linmalar va tizim tashkilotlari xodimlari uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida, davra suhbatlari, uchrashuvlar va seminarlar (oflayn va onlayn shaklda) tashkil etish hamda ekspert va mutaxassislarni jalb qilgan holda o'quv treninglarni o'tkazish	Har yarim yilda	Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi, Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi tizim tashkilotlari va hududiy bo'linmalar rahbarlari
10.	Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlar xodimlarini malaka va ko'nikmalarini oshirish, ularda Korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish maqsadida umumiy va maxsus o'quv kurslarini tashkil etish	<p>1.Vazirlik tizimidagi xodimlar, Korrupsiyaviy xavfi yuqori bo'lgan lavozimda ishlovchi va boshqa xodimlar, shu jumladan, ishga yangi qabul qilingan xodimlar bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida umumiy va maxsus <b>o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;</b></p> <p>2.Vazirlik xodimlarini bilimlarini aniqlashga imkon beruvchi test topshiriqlarini ishlab chiqish, sinov jarayonlarini o'tkazish va baholash</p>	<p>Har chorakda</p> <p>Har chorakda</p>	Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi, tizim tashkilotlari va hududiy bo'linmalar rahbarlari



T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		4. Ishga qabul qilinayotgan shaxslarga Korrupsiyani oldini olish maqsadida uning oqibatlarini tushuntirish, xizmat vazifasiga qo'yiladigan asosiy majburiyatlar, ta'qiqlar, cheklovlar, talablar, tizimning Korrupsiyaga qarshi ichki idoraviy hujjatlar mazmun-mohiyatini tushuntirish;	Doimiy	
11.	Tizimda korrupsiyani oldini olish, uni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ommaviy axborot vositalarida chiqish qilish	1.Vazirlik rahbariyati (vazir yoki vazir o'rinbosarlar) tomonidan sohada korrupsiyaga qarshi kurashish va oldini olish yuzasidan OAV orqali keng jamoatchilik oldida chiqishlar qilish; 2.Sohada amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi materiallarni vazirlikning veb-saytida va ijtimoiy tarmoq kanallarida e'lon qilib borish	Har yarim yilda  Har chorakda	Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi, Axborot xizmatlari bo'limi
12.	Korrupsiyaviy xavf xatarlarni kamaytirish va oldini olish maqsadida so'rovnomalar o'tkazish va natijalarini tahlil qilib borish	Markaziy apparat, tizim tashkilotlari va hududiy bo'linmalar xodimlari orasida (tanlama asosida) anonim so'rovnomalar o'tkazish	Har chorakda	Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi, tizim tashkilotlari va hududiy bo'linmalar rahbarlari
13.	Vazirlik markaziy apparatining hay'at yig'ilishida hamda tizim tashkilotlari va hududiy bo'linmalarining yig'ilishlarida korrupsiyaga qarshi kurashish va oldini olish bo'yicha muhokamalarga to'xtalib o'tkazish	1.Vazirlik markaziy apparatining hay'at yig'ilishida hamda tizim tashkilotlari va hududiy bo'linmalarining yig'ilishlarida korrupsiyaga qarshi kurashish va oldini olishni kuchaytirish bo'yicha eslatmalar berish, mavjud holatlar yuzasidan muhokamalar o'tkazish va xodimlarga yetkazish 2.Tizim tashkilotlari va hududiy bo'linmalarining yig'ilishlarida korrupsiyaga qarshi kurashish va oldini olish holatlari muhokama	Vazirlik hay'at yig'ilishi jarayonida	Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi, Axborot xizmatlari bo'limi

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		etilganlik to'g'risidagi bayonnomalardan ko'chirmani vazirlikga taqdim etish.	Yig'ilishlar yakuniga ko'ra	Tizim tashkilotlari va hududiy bo'linmalar rahbarlari
14.	Vazirlik markaziy apparati, tizim tashkilotlari va hududiy bo'linmalarda Korrupsiyaga qarshi kurashish va oldini olishga qaratilgan "Ochiq eshiklar" kunini o'tkazish	9-dekabr "Halqaro korrupsiyaga qarshi kurashish" kuni munosabati bilan vazirlik markaziy apparati, tizim tashkilotlari va hududiy bo'linmalarda Korrupsiyaga qarshi kurashish va oldini olishga qaratilgan "Ochiq eshiklar" kunini o'tkazilishini tashkil etish hamda OAV yoritish	2024-yil dekabr oyi birinchi dekadasi	Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi, Axborot xizmati bo'limi, tizim tashkilotlari, hududiy bo'linmalar rahbarlari
15.	Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobotlarni shakllantirish va rahbariyatga taqdim qilish hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining maxsus platformasiga yuklab borish	Korrupsiya qarshi kurashish yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumotnomalar va hisobotlarni shakllantirish hamda rahbariyatga taqdim qilish, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining maxsus platformasiga yuklab borish	Har chorak yakuni bilan	Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi, tizim tashkilotlari, hududiy bo'linmalar rahbarlari
16.	Vazirlik tizim tashkilotlari hamda hududiy bo'linmalarida komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha profilaktik tadbirlarni amalga oshirish: 1-chorak: Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlari qishloq xo'jaligi boshqarmalari va ushbu hududlardagi tizim tashkilotlar. 2-chorak: Toshkent shahar, Toshkent, Sirdaryo, Jizzax va	Vazirlik tizim tashkilotlari hamda hududiy bo'linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati samaradorligini o'rganish, kadrlar siyosatini (ishga qabul qilish – tanlov jarayonlarini to'g'ri tashkil etilganligi) yuritilishi yuzasidan profilaktik ishlarni amalga oshirish, amaliy yordam ko'rsatish hamda sodir bo'lgan (korrupsion holatlar yuz bergan taqdirda) korrupsion holatlar yuzasidan muhokamalar o'tkazish	2024-yil davomida	Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi, Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi, tizim tashkilotlari, hududiy bo'linmalar rahbarlari



T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	<p>Samarqand viloyatlari qishloq xo'jaligi boshqarmalari va ushbu hududlardagi tizim tashkilotlar.</p> <p>3-chorak: Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi va ushbu hududlardagi tizim tashkilotlar.</p> <p>4-chorak. Tizim tashkilotlari (tanlama asosda)</p>			

**Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi boshlig'i**




**S.Xalilov**



(Taccurob o'lg.)




(Xalilov S.)



(Taccurob A.)



(Y. Buxorabov)



(P. Buxorabov)